

TELEFONDA MULOQOT MADANIYATI DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

N.Abiyev, N.Ernazarov

SamDU 1-son AL

Inson o'zining xizmat faoliyatida, jamoatchilik ishlari sohasida ko'plab kishilar bilan rasmiy-norasmiy muloqotda bo'ladi. Insonlar o'rtasidagi aloqalar – kommunikatsiya odatiy axborot almashinuv emas, albatta. Muomala madaniyati inson faoliyatining eng murakkab jarayoni bo'lib, u kishilarning ijtimoiy va siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy, iqtisodiy va huquqiy dunyoqarashi yig'indisi hisoblanadi hamda inson tafakkuri va ruhiyatida yillar davomida shakllanadi.

Muomala madaniyati – etiketning barchaga xos bo'lgan umumiy qoidalari mavjud. Ularga rioya qilish nafaqat har bir kishining, balki u mansub bo'lgan millatning, xalqning umumiy madaniyati darajasidan dalolat beradi.

Insoniy muomalaning tarkibiy qismi bo'lgan nutqiy muloqotning turlari ko'p bo'lib, ular turli vaziyatlarda, har xil mavqe va yoshdagi odamlar o'rtasida amalga oshiriladi. Ana shu jarayonning zarur bir turi – telefon orqali gaplashish madaniyatini yanada yuksak darajaga ko'tarish hozirgi kunda dolzarblik kasb etayotgan muammolardan biridir.

Darhaqiqat, telefon orqali muloqotda bo'lish muomala jarayonining eng faol turi hisoblanadi. Bugungi kunda kommunikatsiyaning bu turi imkoniyatlari g'oyatda kengaydi. Hozirgi O'zbekiston sharoitida shahar bilan qishloq orasida bu borada hech qanday tafovut qolmadi. Ayniqsa, uyali telefon aloqalarining vujudga kelishi esa xizmatning bu turi qamrovi g'oyatda keng ekanligini ko'rsatdi. Xizmat va mobil telefonlar funksiyalarining beqiyos kengayib borishi tashkilot va muassasa xodimlari va, qolaversa, jismoniy shaxslar oldiga muomala madaniyati bo'yicha o'ziga xos talablarni qo'yimoqda.

Ishxonada, ko'pchilikka taalluqli bo'lgan xizmat telefonidan foydalanishda o'ziga xos talablar bor. Chunki kimdir sizning ishxonangizga qo'ng'iroq qilolmay qiynalayotgan bo'lishi yoki sizdan keyin kimdir qo'ng'iroq qilishni kutib turgan bo'lishi mumkin. Faqat o'zingizga tegishli bo'lgan shaxsiy gaplarni atrofda qilargalarga eshittirish ham shart emas. Bunday holatlar aniq va lo'nda qilib fikr almashishni taqozo etadi.

Xullas, xizmat telefonidan mumkin qadar qisqa foydalanish lozim. Fikrni qisqa, ixcham bayon qilish, suhbatdoshning vaqtini olmaslikka intilish zamonaviy kishining fazilati sanaladi.

Ayniqsa, hozirgi kunda ommaviy tus olgan mobil telefondan foydalanishning qonun-qoidalari nafaqat madaniy-ma'naviy, balki huquqiy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shunga ko'ra, uyali yoki mobil telefon orqali gaplashish umummadaniyat qoidalariga amal qilishning tarkibiy qismiga aylandi va bu jarayonda odob qoidalariga rioya qilish ijtimoiy soha xodimlari uchun xizmat vazifasi, o'quvchi va talabalar uchun esa ichki tartib me'yorlari sifatida rasmiy hujjat maqomiga ham erishdi.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 139-son Qarori bilan tasdiqlangan «O'zR ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi Nizom ta'lim oluvchilarga nisbatan muayyan ta'sir ko'rsatish choralarini belgilab berdi: a) ogohlantirish, b) o'quvchining kundalik daftariga yozib qo'yish, d) ota-onalarini xabardor qilish, ularni ta'lim muassasasiga chaqirish, e) ota-onalar ishtirokida qo'shma majlisda muhokama qilib, tegishli choralar ko'rish.

Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish o'quv fani mavzularini o'rganish va o'qitishda jamiyat taraqqiyoti uning a'zolari oldiga qo'yayotgan madaniy-ma'naviy va huquqiy talablarni o'z vaqtida hisobga olib ish ko'rish lozim, deb hisoblaymiz. Ana shularni nazarda tutib, ushbu fan o'quv dasturida ko'zda tutilgan «Turli rasmiy xatlarning mazmuniy tavsifi. Xizmat doirasidagi kommunikatsiya shakllari» mavzusi ta'lim muassasasiga berilgan huquqlardan kelib chiqib, alohida 2 ta mavzu sifatida kengaytirilishi maqsadga muvofiqdir.